

84
F25

Qadimgi
hikmatlar



Abul Farroj

Harig'li niyatlar

Количество предыдущих
выдач

23.05.22

QADINGI HIKMATLAR

Abul Feroj

MAPOQLI
RIVOYATLAR

Dayta ishlangan ikkinchi nashri

9032

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIV VA ORTA MAXAUS TALIM VAZIRLIGI
TOSHKENT VILOYATI CHIRCHIQ
DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI
AXBOROT RESURS MARKAZI

TOSHKENT
«O'ZBEKISTON»

2016

02ZENKISTON RESPUBLIKASI
OLIV VA ORTIA MANUSU TALIM VAZIRLIGI
TOSHKENT MILOYATI CHIRCHIO
DAVIAT PEDAGOGIKA INSTITUTI
AXBOROT RESURS MARKAZI
1-FILIALI

UO'K: 821.411.172.3-34
KBK 84(5Sur)
F 25

To'plovchi va tarjimon

Kitriyo QAHHOROVA

Faroj, Abul.
F 25 **Maroqli rivoyatlar** / Abul Faroj; to'plovchi va tarj.
K. Qahhorova. — T.: «O'zbekiston», 2016. — 48 b.
ISBN 978-9943-01-377-3

Suriya adabiyotining klassik shoiri, adibi va qomusiy bilim egasi bo'lgan Abul Faroj hayoti davomida xalq orasidagi dono hikmatlar, latif hikoyatlarni yig'ib yurgan. Ushbu kitobdagi latifa va hikoyatlar yunonlar, forsiy xalqlar, hindlar, arablar va boshqa xalqlar og'zaki ijodidan to'planib, Abul Faroj tomonidan kitob holiga keltirilgan. Shu tufayli ham bu mo'jaz kitob keng kitobxonlar ommasiga manzur bo'ladi deb o'ylaymiz.

UO'K: 821.411.172.3-34
KBK 84(5Sur)

ISBN 978-9943-01-377-3

© K. Qahhorova (to'p. va tarj.), 2016
© «O'zbekiston» NMU, 2009, 2016

HIKMATLARGA OSHUFTA KO'NGIL

Abul Faroj — Suriya adabiyotining klassik shoiri va adibi hamda qomusiy bilim egasi. Abul Farojning to'liq ismi Grigoriy Ioann Bar-Ebrey bo'lgan, u Kichik Osiyoning Molatya shahrida 1226-yilda dunyoga kelgan.

Orasi rahbarligida yaxshi o'qib, o'z zamonasining barcha fanlaridan yaxshi xabardor olim bo'lib yetishadi. Yaqin Sharq va Kavkaz bo'ylab ko'p sayohatda bo'ladi. O'zi Suriya nasroniylaridan bo'lishiga qaramay, turli elat, turli xalq va turli din vakillariga bir xil munosabarda bo'lgan.

U falsafa, astronomiya, tibbiyot, filologiya, tarixga oid o'tizdan ortiq asarlar muallifi.

Uning badiiy ijodi ham keng va rango-rang. Bir qancha axloqiy dostonlari, marsiyalari, to'rtliklari va boshqa she'r-lari bor.

Abul Faroj o'z ona tilidan tashqari arab, fors, yunon, yahudiy, turkiy tillarni bilgan. Binobarin, uning «Maroqli rivoyatlar» kitobidagi latifa va hikoyatlar yunonlar, forsiy xalqlar, hindlar, yahudiylar, arablar va boshqa xalqlardan to'plangan. Uning qahramonlari orasida musulmonlar, xristianlar, buddaviylar va boshqa din vakillari bor.

U xalq ijodi namunalarini charchamay to'pladi va bu asarini ko'p yillar davomida qatrama-qatra yig'ib bordi.

* * *

Bir faylasufdan:

— Qanday hodisa mamlakatning aksariyat aholisini baravariga xursand qila oladi? — deb so'rashibdi.

— Johil podshohning o'limi, — deb javob beribdi faylasuf.

— Podshoh bilan sening o'rtangdagi tafovut nimadan iborat? — deb so'rasa, u shunday debdi:

— Podshoh hirs-u havasning g'ulomi, men esa amiriman.

* * *

Aftotundan so'rabdilar:

— Boshiga kulfat tushgan odam o'ziga qanday tasalli berishi mumkin?

— Aqli odam: shu voqeaning sodir bo'lishi tabiiy deb o'ziga tasalli bersa, ahmoq: faqat men emas, boshqalar ham shu kunga tushishi mumkin, deb o'ziga tasalli beradi.

* * *

Arastu Iskandar Zulqarnaynga nasihat qilibdi.

— O'z siringni zinhor ikki kishiga ayta ko'rma. Mabodo siring oshkor bo'lib qolsa, bu ikki kishidan qaysi birining og'zi bo'shligini aniqlash qiyin. Ikkalasiga jazo bersang, og'zi mustahkam odamni tahqirlagan bo'lasan. Agar ikkalasini kechirsang, yana begunoh odamni haqoratlagan bo'lasan, chunki u sening afvingga muhtoj emas.

* * *

Bir haromi bola o'tkinchilarga qarab tosh otayotganini ko'rib, bir faylasuf shunday debdi:

— Hoy bola, ehtiyot bo'li! Otayotgan toshing yana o'z otangga borib tegmasin!

Bir faylasuf mash'ala ko'tarib borayotgan qizni ko'rib:

— Qarang! O'tga o't tushibdi! — debdi.

* * *

Faylasuf sohibjamol bir ayolni teatarda ko'rib:

— Hurliqo, sen bu yerga tomosha ko'rgani kelingimi yoki tomosha ko'rsatganimi? — debdi.

* * *

Bir faylasufdan:

— Nega sultonimizning senga unchalik xushlari yo'q? — deb so'rasalar, shunday debdi:

— Chunki sultonlar o'zlaridan bir pog'ona baland kishini yoqitmaydilar! Barcha sultonlarning xislati shu!

* * *

Arastudan:

— Nega baxillarning tori hamisha tarang? — deb so'rabdilar. Shunda u:

— Chunki ular faqat o'zlarining omadsizligini emas, boshqalarning omadini ko'rib ham iztirob chekadilar, — deb javob beribdi.

* * *

Pifagorning uzugiga quyidagi so'zlar o'yib yozilgan ekan:

«Bir lahzalik omaddan ko'ra bir lahzalik omadsizlik afzal».

* * *

— Notiqning vazifasi nimadan iborat? — deb bir faylasufdan so'rasalar, u shunday debdi:

— Bir chaqaga arzimaydigan odamni ko'kka ko'tarib, buyuk shaxslarning xizmatini yer bilan yakson qilish.

* * *

Bir faylasuf shunday degan ekan.

— Aqli odam ahmoqni darrov taniydi, chunki aqli kirguncha bir vaqlar o'zi ham shu taxtilda bo'lgan. Ammo

aqlsiz odam aqli odamni tanishi amri mahol, chunki u hech qachon aqli bo'lmagan.

— Odanning tabiati juda g'alati-da, — debdi bir faylasuf, — davlati qo'lidan ketsa qayg'uradi, ammo umri o'tib ketayotganiga parvo qilmaydi.

Bir kun Diogendan:

— Olamda eng mushkul ish nima? — deb so'rashibdi.

— O'zligingni bilish va siringni saqlay olishdan mushkulroq ish yo'q, — deb javob beribdi u.

Odamlar Arastudan:

— Sen boshqalardan nimang bilan farq qilasan? — deb so'rashibdi.

— Ular yemoq uchun yashasa, men yashamoq uchun yeyman, — debdi Arastu.

Sugrot bir boy bilan yo'lga chiqqan ekan. Yo'lida, qarog'chilar shu o'rtaida izg'ib yuribdi, degan xabarni eshitib qolibdi.

Boy:

— Obbo, xudo urdi! Ular meni tanib qolsa nima bo'ladi? — desa, Sugrot:

— Obbo, xudo urdi! Ular meni tanimay qolsa nima qilaman? — debdi.

Birov qattiq nonni suvga ivitib huzur qilib yeb o'tirgan faylasufni ko'rib hayron qolibdi va:

— Qattiq nonni ham maza qilib yeyish mumkin ekanmi? — deb so'rabdi.

— Albatta. Men faqat qattiq non mazali bo'lib tuyulgunga qadar nafsimni tiyib o'tiraman, — debdi faylasuf.

— Dunyoda eng yaxshi ilm qaysi? — deb so'rashibdi bir faylasufdan.

— Johillar yoqlirmaydigan ilm, — deb javob beribdi u.

Alfotun shunday degan ekan:

— Nodoning nodonligini ikki xislat aytib turadi: birinchidan, gapi tuturqsiz, ikkinchidan, javobi poyma-poy bo'ladi.

Bir faylasufdan:

— Qanaqa tentakni go'rda tuzaladigan tentak, deb aytsa bo'ladi? — deb so'rasalar:

— Hassasini ikki marta yo'qotgan tentakni, — deb javob beribdi.

Arastu Iskandarga quyidagicha nasihat qilibdi:

«Askartarim mening haqimda yomon o'ylga bormasin desang, ular bilan ehtiyot bo'lib muomala qil, chunki birov haqida yomon fikrga borgan kishi uning haqida yomon gapirishi ham, unga nisbatan odobsizlik qilishi ham hech gap emas».

Bir faylasuf shunday debdi:

— Dushmaningdan pinhon tugan siringni do'stingga ham aytma, chunki do'stni dushmaniga aylanishi juda oson.

Bir podshoh Diogendan:

— Sening mol-davlatiing, yer-suving qayerda? — deb so'ragan ekan, u o'z shogirdlari va homiyilariga ishora qilib:

— Mana bu kishilarda, — debdi ularga bergan bilimlarni nazarda tutib.

* * *

Bir kishi:

— Hayotda ko'zlamagan voqecang sodir bo'lib qolsa, shundan yomoni yo'q, — debdi.

— Ko'zlab yurgan narsang sira amalga oshmasa, undan ham yomonroq, — debdi ikkinchisi.

* * *

Arastu shunday degan ekan:

— Mast ko'rmasdan bosgan tikanning dardini sezmagandek, nodon ham nodonligidan nolimaydi.

* * *

Buyuk faylasuf Buzurgmehrdan so'rashibdi:

— Odamlar nazarga ilmaydigan bebaho fazilat nima?

— Kantarlik, — deb javob beribdi u.

* * *

— Odamning eng yaxshi xislati sabrli bo'lish, ammo uzoq vaqt sabr qilish uchun bir umr kifoya qilmaydi, ikki umr kerak, — degan ekan Buzurgmehr.

* * *

Shoh Husravdan:

— O'g'illaringdan qaysi birini ko'proq sevasan? — deb so'rashibdi.

— Tartib-intizomga rioya qiladigan, or-nomusini ko'z qorachig'iday saqlaydigan, jamiyatda oliy rutbani ishg'ol etish uchun hamisha jon kuydiradigan o'g'limni ko'proq yaxshi ko'raman, — debdi u.

* * *

Buzurgmehr yana shunday degan ekan:

— Hayot ajoyib narsa-da: kim seni sevsa, unga nisbatan loqaydsan; kim seni yoqtirmasa, unga parvona bo'lg'ing keladi.

* * *

Bir xiradmand shunday degan ekan:

— Nodonga yaxshilik qilgan odam yo cho'chqaning bo'yiga dur-u marjon taqayotgan, yo zaharli ilonni asal bilan bogayotgan odamga o'xshaydi.

* * *

Bir donishmanddan so'rashibdi:

— Tirikchilik vositasini qanday qo'lga kiritisa bo'ladi?

— Peshonangda yozilgan bo'lsa, sabr qil, o'zi keladi. Peshonangda bo'lmasa, behuda chiranchishning hojati yo'q!

* * *

Boshqa bir donishmand bunday degan ekan:

— Dono rizqini izlab dunyoning narigi yoniga ham borishga tayyor, ammo nodon, olma pish, og'zimga tush, deb o'tingan joyidan nari jilmaydi.

* * *

Anushervon shunday degan ekan:

— Bekorchilik kishini behuda xayollarga olib boradi, behuda xayollar esa kishining osoyishtaligini buzadi.

* * *

Buzurgmehrdan:

— Nega do'sting dushmanga aylanishi oson-u dushmaning do'st bo'lishi qiyin? — deb so'rabdilar.

—Imoratni buzish qurishdan, jomni sindirish payvand qilishdan, pulni sarflash topishdan osonroqda, — debdi u.

Shoh Husravga shunday savol berishibdi:

— Kimlarga tezroq aql kirishini istarding?

— Dushmanlarimga, — debdi. — Hammaga ma'lumki, aqli odam yovuzlikdan qochadi. Bo'lar-bo'lmasga yurish qilavermaydi. Esi pastidan xudo saqlasin. Ahmoqlarni be-ma'ni ishdan qaytarib bo'lmaydi.

Buzurgmehr zindonda yolganda do'stlari undan:

— Shunday qora kunga tushganingda o'zingga qanday tasalli berapsan? — deb so'rashibdi.

— To'rt hikmatli so'zni qayta-qayta takrorlayapman, — debdi u. — Birinchisi: bularning hammasi peshonanda bor ekan, ko'ryapman, demak taqdiridan qochib qutulib bo'lmaydi. Ikkinchisi: bu kulfat ming og'ir bo'lsa ham chidamasdan, sabr qilmasdan iloji yo'q. Uchinchisi: hali bu holva, bundan og'irroq kunga ham tushish mumkin. To'rtinchisi: ehtimol bugun-erta qutulaman, balki allaqachon qutulgan hamdirman-u o'zim bexabardirman.

Shoh Shohpur shunday degan ekan:

— Besh narsa har qanday shaharning chiroyini ochib yuboradi.

Fotih shoh, odil qozi, to'kin-sochin bozor, hoziq tabib va suv to'la daryo.

Buzurgmehning xotini eriga bir savol bergan ekan, u javob berolmabdi. Shunda xotini:

— Sen podshohning maslahatchisi sifatida katta maosh olasan-u mening bittagina savolinga javob berolmayсан, — dedi, Buzurgmehr shunday debdi:

— Men faqat bilganlarim uchun maosh olaman. Bil-maganlarim uchun maosh to'laganda, ehtimol, pod-shohning xazinasidagi barcha oltinlar ham kamlik qilar edi.

Buzurgmehr shu so'zlarni yaxshi ko'rarkan:

— Boshingda bir-biriga teskari ikki xil fikr paydo bo'lib, qaysi birini amalga oshirishni bilmay qolsang, xotiningga maslahat solib u aytdan so'zning teskarisini qili

Bir donishmand shunday degan ekan.

— Nayzaning zaxmi bitib ketadi, ammo tilning zahridan paydo bo'lgan zaxm sira bitmaydi.

— Dunyoviy laz-zatlar dengizning suviga o'xshaydi, ichilgan sari chanoq'ing oshadi, — debdi bir donishmand.

Bir donishmand shunday degan ekan:

— Sharob kishini to'rt ko'yga soladi, ichilgan zamon kishi gerdayib to'vushga o'xshab sollona-sollona qadam tushlaydi. Birozdan keyin maymun bo'lib hammani kuldiradi. Keyinroq sher bo'lib atrofdagilarga hamla qiladi. Oxiri cho'chqa bo'lib botqoqqa belanib yotadi.

Bir donishmand shunday degan ekan:

— O'tob sog'lom ko'zga yaxshiroq ko'rishga yordam berib kasal ko'zni ko'rt qilib qo'yanidek, ilm ham aqli

odamning aqlini oshirib, aqli qisqa odamni tentak qilib qo'yadi.

— Dono miyasini to'ldirish uchun qayg'ursa, nodon qornini to'ydirish uchun qayg'uradi, — debdi bir donishmand.

Bir hind donishmandi shunday degan ekan:

— Olti narsa o'z tabiatiga ko'ra doimiy bo'lmaydi, ya'ni vafo qilmaydi. Birinchisi, ahmarning rafogati; ikkinchisi, ayolning muhabbati; uchinchisi, bulutning soyasi; to'rtinchisi, noinsof podshoh; beshinchisi, behisob davlat; oltinchisi, soxta shuhrat.

Bir donishmand shunday debdi:

— O'zini ham va o'ziga ham bezor qiladigan odamlarning besh toifasi mavjud:

1. Boshqalarga ta'lim berishga bel bog'lagan nodon.
2. Oti bor-u o'zi yo'q maqsadga erishmoq uchun jon kuydiradigan odam.
3. Nadimlari bilan maslahat qilmaydigan podshoh.
4. Qo'lidan kelmaydigan ishga tish-timog'i bilan yopishgan odam.
5. Hammani ahmoq qilaman, deb umid qilgan xizmatkor.

— Ahmoq bilan ko'ring orasida qanday farq bor? — deb bir faylasufdan so'rabdilar.

— Ko'r kuni tundan farq qilolmaganidek, ahmoq aql-idrokni bemazgarchilikdan farq qilolmaydi, — deb javob beribdi u.

Qanqqa odamni eng kuchli hisoblash mumkin? — deb bir faylasufdan so'rabdilar.

— Nafsinu tiya oladigan, egri yo'ldan hazar qila oladigan odamni, — debdi faylasuf.

Bir donishmand shunday degan ekan:

— Xasming ming zaif bo'lsa ham uni kuchli deb bil va undan ehtiyoj bo'l. Kuchli do'stingga esa hamisha zaif deb qara. Aks holda sen do'stingning kuchiga ishonib beparvo bo'lib, o'zing bilan teng bo'lgan dushmaning kuchini zarbasiiga duchor bo'lishing mumkin.

— Makkor dushman yalang'och qilichga o'xshaydi: zo'hran kishini mahiyo qiladi-yu ehtiyoj bo'lmasang, seni mayib qilib qo'yishi mumkin, — debdi bir faylasuf.

— Mayda-chuyda narsalarga parvo qilmaslik har bir inqilgga xos xislatdir, — debdi bir donishmand.

Bir donishmand debdi:

— O'zini hamisha oliyanob tutib yurgan kishining vijdoni hech qachon qiyalmaydi.

Bir kishi shunday degan ekan:

— Takallufsizlik hurmatiga putur yetkazadi, haqiqiy do'stligingga raxna soladi.

Bir donishmand shunday degan ekan:

— Pashsha yara chiqqan a'zoga gina qo'nganidek, ahmoq ham odamlarning faqat nuqsonini ko'radi.

Bir kishi shunday degan ekan:

— Men og'iz ochmaganimdan ko'ra og'iz ochganimga ko'p marotaba pushaymon bo'lganman.

Bir kishi shunday degan ekan:

— Og'zingdan chiqmagan so'z sening asiring, og'zingdan chiqdimi, bo'ldi — sen unga asir bo'lasan.

Bir donishmand shunday degan ekan:

— El-aymog'i suymagan odam bilan zinhor hamxona bo'lma, chunki ular bu kishi bilan ko'proq osh-qatiq bo'lishgan va uni sendan yaxshiroq bilishadi.

— Bu qabilaning boshlig'i kim? — deb so'rashibdi bir mo'tabar zotdan.

— Sho'rtlik qabiladoshlarim peshonasiga meni boshliq qilib saylash bitilgan ekan, — deb javob beribdi u.

Bir shahzoda go'daklik chog'ida ta'lim olib yuritib, bir so'zni noto'g'ri yozgan ekan, ustoziga unga tanbeh beribdi, shunda bola:

— Muncha g'azablanmasangiz! Yaxshi ot ham qoqilib ketadi-kul! — desa, muallimi:

— Gaping durust-ku, ot qoqilsa, gayta takrorlanmasligi uchun qamchi bilan uradilar, ammo seni...

— Ammo ot ba'zan qamchilagan odamni tepib, qamchisini sindirib qo'yishi ham mumkin, — debdi bola.

Bir galandar o'z mulking sultoniga:

— Meni falon shaharga hokim qilib tayinlasangiz, — debdi.

— Sening galandarona hayoting xudoga xush kelgan ekan, seni hokim qilib, xudoning xohishiga qarshi ish qilmaylik va seni gunohga qoldirmaylik. Agar bu taxlida hayot kechirib yurishing munofiqlik bo'lsa, unda munofiq-larni taqdirlash sira joiz emas, — debdi podshoh.

Horun ar-Rashidning ikki xotinidan ikki o'g'li bor ekan. Bir Muhammad Amin binni Horun, ikkinchisi Ma'mun binni Horun. Xalifa esa faqat Ma'munni yaxshi ko'rar va Aminidan ustun qo'yarkan.

Bir kuni Muhammad Aminning onasi:

— Ey xalifam, nechun Ma'munni Muhammad Aminidan yuqori qo'lasan? Axir ikkisi ham o'z farzanding-kul! — debdi.

— Ikkovini ham imtihon qilib ko'raylik, sababini o'shan-da tushunasam, — debdi Horun.

U bir xodimni chaqirib, Muhammad Amin va Ma'mundan bir narsani so'rab kelishni buyuribdi. Xodim Muhammad Aminning oldiga borib:

— Ey Muhammad Amin, bordi-yu toj-u taxt sening qo'lingga o'tsa, menga qanday inoyat ko'rsatasan? — debdi. — Sengami? — debdi Muhammad Amin, — senga katta inoyatlar ko'rsataman. Seni o'zingga eng yaqin maslahatchi qilib olaman.

Xodim kelib, xuddi shu savolni Ma'munga ham beribdi. Bu savoldan Ma'munning jahli chiqib ketibdi, oldidagi oltin siyohdonni olib xodimning boshini yoritib, fig'oni jilakka chiqib debdi:

— Qani ayt-chi, otamning o'limi senga nima uchun kerak bo'lib qoldi? Men hamma xizmatkorlarini ham uning bitta farzandi deb bilardim. Sen muttaham hali uning o'limini kutib yurgan ekansan-da.

Boshini qonatib kelgan xodim, qissani boshdan oyoq gapirib beribdi. So'ngra Horun ar-Rashid xotiniga qarab debdi:

— Men farzandlarimning har qaysisiga o'z fahmi va fe'lga qarab muomala qilaman.

Bir podshoh shunday degan ekan:

— Odamlarning gunohini afv etish menga qanchalik huzur bag'ishlashini fuqarom bilganida, ehtimol mening qalamravimda gunoh qilmagan odam topilmas edi.

Boshqa bir donishmand shunday debdi:

— O'zingdan katta bilan ham, kichik bilan ham zinhor og'iz-burun o'pishma: bu xulqing kattaga malol kelishi, kichik esa bu ham o'zimiz qatori ekan, deb seni pisand qilmay qo'yishi mumkin.

— Ikki holarda kishining izzat-nafsiga putur yetadi, — debdi bir donishmand. — O'zing uchun bir nima iltimos qilasang yoki ahmoqlar bilan muomala qilishga majbur bo'lsang.

— Bo'yin egib hadya so'ramagan kimsa hadyaga loyiq emas, — degan ekan bir podshoh.

Bunga javoban shu yerda o'tirgan donishmand shunday debdi:

— So'rab olgan odam olgan narsasiga nisbatan ko'proq yo'qotadi. Haqiqiy marhamatli kishi so'ramasdan beradi.

Bir donishmand:

— Gapirmoqdan eshitmoq ma'qul, — debdi.

— Nima uchun? — deb so'rashibdi undan.

Shunda donishmand:

— Bo'lmasa xudo bitta til-u ikkita quloq bermas edida, — debdi.

Boshqa bir donishmand:

— Sopol jomning butunligini chertib bilishganidek, odamga ham gapirgan gapiga qarab baho berish mumkin, — degan ekan.

Bir donishmand sultonning xotiniga murojaat etibdi:

— Mening iltimosim haqida eringizga bir og'iz shirib qo'ying!

— Mendan so'rab o'tirgandan ko'ra o'zingiz sultonga nima qolmayisizmi? — debdi malika.

— Malikam! Shoxning uchidagi mevani olib yeyish uchun pastki shoxidan ushlab egish kerak-da! — debdi donishmand.

Bir olim shunday degan ekan:

— Mening bilimim mukammal emas, chunki o'z vaqtida o'zimdand bir pog'ona past odamlarga savol berishga bo'yim yor bermagan. Endilikda istardimki, mening shogirdlarim, barcha noaniq masalalar bo'yicha o'zlaridan bir pog'ona past odamlarga murojaat etishni ayb deb bilishmasin! Ularning bilimlari o'shandagina mukammal bo'ladi.

Bir olimdan:

— Tuturiqsiz deb kimni aytsa bo'ladi? — deb so'ra-shibdi.

— Yomonlashni ham, maqtashni ham bilmaydigan odamni, — deb javob beribdi olim.

* * *

Bir olim shunday degan ekan:

— Nodonga nodonligi tufayli til tekkiza ko'rma! Aks holda sendan ibrat olib, seni dushman o'rinda ko'radi.

* * *

Boshqa bir olim bunday degan ekan:

— Kitoblardagi fikrlar sening asosiy mablag'ing, kalandagisi esa o'sha mablag'ning bir qismidir.

* * *

Bir guruh navkarlar qurshovida ketayotgan shohni ko'rib bir qalandar o'zicha:

— Odamlarga ozmuncha jabr-u sitam qilmaganga o'xshaydi. Bo'lmasa ulardan shunchalik qo'rqarmidi, — debdi.

* * *

Bir qalandar shunday degan ekan:

— Kimki keragidan ortiqcha yig'ishga urinsa, boshqalar uchun jon kuydirayotgan bo'ladi.

* * *

Bir mo'ysafiddan:

— Nega xayr-ehsonni me'yorida oshirib yubording? — deb so'rashibdi.

— Yangi manzilga ko'chadigan odam eskisini tozalab qo'ymaydimi axir? — debdi mo'ysafid.

* * *

Bir qalandar shunday degan ekan:

— Davlatmand kishiga uning davlatidan biror foyda bormi? Davlat kishini qo'rqib yurishga, ehtiyot bo'lishga,

qaroqchilardan xavfsirashga, umuman, tinchligini buzishga majbur qiliadi; meros tufayli o'z pushtikamaridan bo'lgan bolalarini o'ziga dushman qilib qo'yadi.

* * *

Bir podshoh qalandarga:

— Tila tilagingni, hammasini muhayyo qilaman, — debdi.

— Mangu hayot, abadiy yoshlik, bitmas-tuganmas davlat, hech qanday g'am-alam soya solmaydigan shodlik kutayman.

— Bular mening qo'limdan kelmaydi, — debdi podshoh.

— Bo'lmasa meni o'z holimga qo'y. Qo'ldan keladiganga murojaat etarman, — debdi qalandar.

* * *

Bir qalandar shunday degan ekan:

— Quru yildan beri bir narsani xudodan so'rayman, hech ohim qulog'iga borib yetmayapti.

— Nimani so'ragan eding?

— Faqat bitta narsani — foydasiz narsalar haqida o'ylamashlarni.

* * *

Eron shohi Ardasher ilon chagmagan hakimni o'z saroyiga qabul qilmas ekan. Agar hakim ilon zahridan o'zini butamon qulgara olgan bo'lsa, o'shandagina uni xizmatga olarkan.

* * *

Bir hakim shunday degan ekan:

— Oshqozonda hazm bo'lmagan ovqat yegan odamni yeydi. Shuning uchun ham yegan ovqating hazm bo'lsin desang me'yorida yegin.

* * *

Boshqa bir hakim bunday degan ekan:

— Me'yor — tabiatning itifodoshi, sog'liqning qo'riqchisi. Shuning uchun ichganingizda ham, yeganingizda ham, harakat qilganingizda ham, hatto oshiq bo'lganingizda ham me'yoridan oshmang!

* * *

Bir bemor hazilkash tabibning oldiga borib sanchiqqa qarshi dori so'rabdi. Tabib:

— Tog' do'lanasining tikaniini chaynab ko'ri, — deb maslahat beribdi. Bemor cho'ntagidan qog'oz-qalam chiqarib:

— Taqsir, boshqatdan ayting, yozib olay, — debdi.

— Bir qadoq arpa bilan tog' do'lanasining tikaniini chayna, — dedim.

— Hali arpa haqida hech narsa demagan edingiz-ku?

— Sening eshak ekanligingni ilgari bilmagan ekanman, — debdi tabib.

* * *

Hakim bir sodda bemorni ko'rgani boribdi.

— Ahvoling qalay, ko'ngling nima istaydi? — deb so'rabdi hakim.

— Xudoga shukur, ahvolim hiyla durust. Birozgina qor bo'lsa yer edim, — debdi bemor.

— Qor senga bo'lmaydi, tomog'ing og'rib qolishi mumkin.

— Men faqatgina suvini siqib ichmoqchi edim, — debdi bemor.

* * *

Bir rassom surat chizishni tashlab, tabiblikni ixtiyor qilibdi.

— Nega o'z kasbingni tashlab, tabiblik qilib yuribsan? — deb undan so'rashibdi odamlar.

— Rassomning xatosini hamma ko'radi, hamma tanqid qiladi, tabibning xatosini esa yer yashiradi.

* * *

Hakim bir bemorga:

— Go'sht bilan baliq yemagin, — debdi.

— Ey birodar, go'sht bilan baliq sotib olishga qurtim yetgunda ehtimol sening oldingga kelmagan bo'larmidim, — debdi bemor.

* * *

Hoshdagi g'urrasiga tuz bilan zira sepib o'tingan bir bemorni ko'rib, hakim:

— Ha, og'ayni, kalla pishirmoqchimisani? — debdi.

* * *

Bo'ri, tulki va quyon bir qo'zini ovlab kelishibdi-da, o'ral kimniki bo'lishi kerakligini bilmay gangib qolishibdi. Nihoyat shunday qarorga kelishibdi, kimki yoshi kattaligini isbotlay olsa, qo'zini o'sha yeydi.

Birinchi bo'lib quyon so'z boshlabdi:

— Men olamga kelganimda xudo hali yer-u osmonni yaratmagan edi.

— To'g'ri, — uning so'zini tasdiqlabdi tulki, — men unga doya bo'lgan edim.

— Ikkovining ham gaping haq, ammo mening bo'y-haetim va tish-tinog'im yoshim ulug'ligini isbotlay olmaydim? — debdi bo'ri.

— Isbotlaganda ham qanday, — debdi tulki bilan quyon bir ovozdan, qo'zining qornini yoritib yamlab yutayotgan bo'riga qarab.

* * *

Ovchining qopqoniga tushgan ikki tulkidan biri:

— Endi qayerda uchrasharkanmiz? — deb qo'yibdi.

— Quyorda bo'lar edi. Uch kundan keyin po'stak bozorida bo'lsa kerak-da, — debdi ikkinchisi.

Echki baland imoratning tomiga chiqib, o'sha yerdan bo'riga do'q ura boshladi.

Bo'ri uning ingichka ovozigga birpas quloq berib turibdi-da, keyin shunday debdi:

— Hov echki polvon, bunchalik chiranna! Bu jasorati so'zlar sening og'zingdan emas, o'tirgan yeringdan chiqyapti!

Bir podshoh bir donishmand hamrohligida xarobazorga aylangan qishloqdan o'tib borayotgan ekan, qo'qisidan podshohning ko'zi o'zaro nima haqdadir subhatlashayotgan ikki boyo'g'liga tushib qolibdi.

— Sen qushlarning tilini bilarsheking, — debdi podshoh donishmandga, — bular nima haqda gapirishyapti, tushundingmi?

— Tushunishga-ku, uncha-muncha tushundim-a, ammo sizga aytgani tilim bormaydi.

— Ayt, nimadan istihola qilasan? — debdi shoh.

— G'azab qilmaysizmi? — so'rabdi donishmand.

— Mutlaqo.

— Boyo'g'lilardan birining voyaga yetgan o'g'li, ikkinchisining bo'yga yetgan qizi bor ekan. Bular o'zaro quda bo'lishmoqchi. Ikkinchi boyo'g'li — qizning sepi uchun yuzta xarobazorga aylangan qishloq bermog'chi, kuyovning onasi esa buni kamlik qiladi, deb ko'nmayapti. Ikkinchi boyo'g'li qudani ko'ndirish maqsadida shunday deyapti:

— Xo'irjam bo'l, hozirgi podshoh omon bo'lsa, bir yildan keyin men senga mingta xarobaga aylangan qishloqni hadya qilaman.

Tozi it ohuni quvibdi.

— Menga yetib bo'psan! — debdi ohu.

— Nega? — deb so'rabdi it.

— Chunki men o'zimni qutqargani yuguraman, sen esa ko'layningga yoqish uchun yugurasan!

It tulkini ushlab olibdi.

— Sen meni kuchli bo'lganing uchun emas, zaifligim tufayli qo'lga kiritding, — debdi tulki. — Agar ishonmasang, bor bo'rini ushlab kel-chi.

Bir qush sayyodning tuzog'iga ilinib qolibdi.

— Meni nima qilmogchisan? — so'rabdi qushcha sayyodan.

— Nima qilardim, so'yib yeyman, — debdi sayyod.

Qushcha yolvora boshladi:

— Meni juvonmarg qilma, yaxshi odam! Meni yeb harbiy to'ymasan. Undan ko'ra qo'yib yubor, men senga uchta foydali maslahat beraman, ular senga mening go'sh-tundan ko'ra ko'proq foyda keltiradi.

— Birinchi maslahatimni hozir, sening qo'lingda turganlarda eshitasan. Ikkinchi maslahatimni uchib, mana shu daraxtning shoxiga qo'nganimda eshitasan, uchinchisini esa huv anavi xarsang toshga borib qo'nganimda aytaman.

— Qani, eshitaylik bo'lmasa, — debdi sayyod.

— Birinchi maslahatim shuki, qo'ldan bergan narsangga hech qachon afsuslanma.

Bu maslahat sayyodga xush yoqibdi va u qushchani qo'yib yuboribdi.

— Ikkinchi maslahatim shuki, bo'lmagan narsaga zinhor ishonma! — debdi qushcha daraxt shoxiga qo'nib. Keyin qanoqlarini qoqib, shundog debdi:

— Ey, xon sut ichgan inson! Meni so'yaningda-ku, lehimdan ikki dona bebaho marvarid toparding!

Sayyod nima qilishini bilmay oyog'i kuygan tovuqday betoqat bo'la boshladi.

— Uchib ketmasingdan uchinchisini ham ayta qol, — deb iltijo qilibdi qushchaga.

— Birsada birinchi va ikkinchi maslahatni unutgan odamga uchinchisini nima keragi bor? Qo'ldan bergan narsangga afsuslanma, bo'lmagan narsaga zinhor ishonma, deb hozirgina senga aytmadimmi? Sen esa meni qo'yib yubor-ganingga achinib, ichimda marvarid borligiga ishonib o'ti-risanim? Qushning ichida marvarid bo'ladi, degan gapni hech qachon eshiganniding! Ey laqma, marvarid bahring qo'rda bo'ladi-ku!

* * *

Bir kambag'al tush ko'rsa, tushida tuyaning qumalog'ini qovurayotgan ekan. Ta'birini aytib ber deb, muabbirning oldiga boribdi. Muabbir:

— Bir miri bersang tushingning ma'nosini aytib bera-man, — debdi.

Kambag'al:

— Ey birodar, bir miri pulim bo'lsa tuyaning qumalog'i o'miga baliq olib qovurib yemasnidim, — debdi.

* * *

Bir muabbir Tahrit degan shahardan Bobilga ko'chib ketmogchi bo'libdi. Undan:

— Senga nima bo'ldi? U yerda muabbirlar juda ko'p, bu yerda sen o'zing yakka-yolg'izsan-ku, — deb so'rashsa: — Tahrit xalqiga chivin uyqu bermasa nima qilay? Uxlamagan-dan keyin qanday qilib tush ko'rish mumkin? — debdi.

* * *

Bir saxiy odamning xotini eriga shunday debdi:

— Sening aka-ukalaringga o'xshagan nonko'rarni sira ko'rganim yo'q. Ishing yurishganda ular kecha-kunduz shu yerda, ishing sal yurishmay qoldimi — qorasini ko'rsa-tishmaydi.

lampa javoban eri shunday debdi:

— Bu ularning o'ta odobi ekanligidan dalolat beradi. Ular bunqangi paytlarda ortiqcha tashvish bo'lishini istashmaydi.

* * *

Bir xasisning kechalari turib bolalari qanday yotganidan xabar oladigan odati bor ekan. Agar ular o'ng tomoni bilan yotgan bo'lsa chap tomonga ag'darib:

— Ha, padar qusurlar. Chap tomonga qarab yotsalaring o'lasnlarni! Nahotki o'ng tomonini bosib yotganda ovqat darrov hazm bo'lishini bilmasalaring! — der ekan.

* * *

Bir xasis baqolning oldiga borib:

— Bir mirilik pishloq ber, — degan ekan, baqol:

— Bir miriga faqat pishloqni hidlatishim mumkin, — debdi.

* * *

Uch xasis bitta xonani ijara olishibdi. Lampa moyini har doim birga olisharkan. Bir kun lampa moyi olgani bitkasining puli yetmabdi. Ikkitasi nima qilibdi deng? Pul bermagan hamxonalarning ko'zini bog'lab chiroqni yo-qishibdi, faqat chiroqni o'chirib o'miga kirganlarida uning ko'zini ochishibdi.

* * *

Bir yozuvchi xasislikni madh etib asar yozib uni xasislikda nom chiqargan sultonga taqdim etibdi. Sulton muhiyasini o'qib shunday debdi:

— Tahsinga sazovor asar. Lekin afsuski, sening bu mehnatingni taqdirlay olmayman. Aks holda sening ibra-tomuz va foydali maslahatlaringga amal qilmagani bo'la-man.

* * *

Xasis bir kambag'alni ishga olmoqchi bo'lib:

— Xizmatning badaliga nima so'raysan? — debdi.

— Oorminni to'yg'azsang bas, — debdi kambag'al.

— Bo'lmaydi! Juda qimmat!

— Bundan arzoni qanaga bo'ladi? Nima, har chorshanba va juma kunlari ro'za tutaymi bo'lmasa?

* * *

Bir xasis shunday debdi:

— Farishtalarga hech kim: «Bering! To'yding! Kiyintiring!» — demaydi. Faqat shuning uchun ham farishta bo'lsang arziydi.

* * *

Bir xasis faqat yarim kechada ovqat yer ekan.

— Nega shunday bemahalda ovqat yeysan? — deb so'rashibdi undan.

— Avvalo, bu mahalda pashsha bo'lmaydi. Ikkinchidan, bu vaqtda hech kim eshigingni taqillarib kelmaydi.

* * *

Bir xasis qattiq og'rib qolibdi. Shuncha dori-darmon berilsa ham terlamabdi. Xizmatkorlari nima qilishlarini bilmay hakimga murojaat etishibdi.

— Uning oldida yog'li qatlama yenglar. Buni ko'rib hech qanday dorisiz, darhol terlaydi, — debdi hakim.

* * *

Xasis bir miri pulni tushirib yuboribdi. Darhol yerdan olib o'pibdi va silab-silab cho'ntagiga solarkan, shunday debdi:

— Otam ham, onam ham, do'st-u yorim ham sensan! Sen qanchadan qancha shaharlarni kezding, qanchadan qancha dengizlarda suzding! Qanchadan qancha boylarni xonavayron, kambag'allarni boy qilding. Qanchadan qancha

qizlarning nomusini barbod etding, sanamlarni yo'ldan o'zding! Mana endi joyingni topding! Endi hech kimning rohatini buzolmaysan! Bu yerdan seni ombur bilan ham sug'itib olmaydi hech kim!

* * *

Bir xasisning husn-u latofatida teng-u timsoli yo'q xotini bor ekan. Ammo erining xasisligi tufayli uyida hamisha jujul bo'lib turarkan. Bir kun eri, xotini pul deb jonidan bezor qilgandan keyin, uni taloq qilib uydan haydab yuboribdi.

Xotinning go'zalligi podshohning qulog'iga yetibdi va podshoh uni olmoqchi bo'lib, sovchi yuboribdi. Xotin shunday deb shart qo'yibdi:

— Bitta shartim bor, agar podshoh shu shartga ko'nsa tegaman. Shartim shuki, podshoh meni o'zining taxtiravonida olib borsin va taxtni ko'tarib borishni mening sobiq erimga topshirsin.

Podshoh bunga rozi bo'libdi.

Ayolning sobiq eri taxtni ko'tarib borayotganda ayol, ahyiab bir dinor pulini yerga tashlabdi-da, eriga:

— Bir miri pulni tushirib yubordim, olib ber, — debdi.

Xasis egilib pulni olib:

— Bir miri emas, bir dinor-ku, — desa, xotini:

— Yo'qolgan bir miri pulim o'rniga bir dinor olin bergan xudodan o'rgilay-al — debdi ikki pulga arzimaydigan erni yo'qotib malika bo'lib qolganiga ishora qilib.

* * *

Bir baqqol kuppa-kunduzi chiroq yoqib o'tirgan ekan, undan:

— Senga nima bo'ldi? — deb so'rashibdi.

— Nima qilay! Hamma baqqollarning do'koni xaridorga to'la, ammo mening oldimga hech kim kelmaydi. Shoyad chiroq yorug'ida meni ko'risha, deb yoqib qo'ydim.

* * *

Bir hazilkashdan:

— Nega xo'roz ertalab turganda bir oyog'ini ko'tarib turadi? — deb so'rabdilar.

— Ikkala oyog'ini ko'targanda yiqilib ketadi-da, — debdi u.

* * *

Bir mashhoq do'sti bilan ovqatlanib o'tirgan ekan, to'stadan tap etib tomdan bir kesak tushibdi. Sal o'tmay bu hol yana takrorlanibdi.

Mashhoq cho'risini chaqirib:

— Tomga chiqib qara-chi, kun botibdimi? — debdi.

Kanizak tomga chiqib anchadan keyin tushibdi va xo'jayiniga:

— Ha, kun botibdi, — debdi.

Mehmon taajjublanib, do'stidan:

— Shom bo'ldi-yu o'zing kun botganini bilmaysanmi? Nega bechora qizni ovora qilib tomga chiqarding? — desdi, do'sti shunday javob qilibdi:

— Bilishga-ku bilaman-a, ammo bu qiz tushmagurri tomga, xushtori oldiga chiqarish uchun biror bahona ham kerak edi-da, bo'lmasa u ertalabgacha toshbo'ron qilib, bizni bezor qilardi.

* * *

Bir qiziqchidan:

— Birov bir dinor pul bersa olarmiding? — deb so'rashibdi.

— Yigirma kaltak urmasdan berishsa olar edim, — debdi u.

— Bunga yigirma kaltakning nima alogasi bor? — deb so'rashibdi undan.

— Bizni davrda hech narsani bekorga berishmaydi, — debdi qiziqchi.

* * *

Bir qiziqchini it qopgan ekan, do'stlari unga shunday mahallat berishibdi:

— Iltim quturgan-quturmaganligini bilmogchi bo'lsang, unga yopilgan non berib ko'r. Agar yesa quturmagan, yemasa quturgan bo'ladi.

— Unda mahallada meni qopmagan i qolmaydi-ku, — debdi qiziqchi.

* * *

Bir hazilkashga:

— Bugun bozorda unning narxi oshibdi, — deyishibdi.

— Buning ahamiyati yo'q. Men bozordan un emas, faqat yopilgan non olaman, — debdi hazilkash.

* * *

Bir sodda kishi tanishi vafot etganini eshitibdi va ko'chada uning ukasini uchratib:

— Kim o'ldi? Senni yo akangmi? — debdi.

* * *

Bir sodda odamning xotini o'g'il tug'ibdi. Qo'shnilar qulluq bo'lsinga kirsiz, sodda tashakkur bayon qilib:

— Avvalo bu xudodan, qolaversa sizlardan... Mening hech qanaga xizmatim yo'q, — debdi.

* * *

Bir sodda shunday debdi:

— Avvalo, xudo meni butunlay yaratmasa bo'lar edi, yaratganda ham ko'r, qo'l-oyoqsiz qilib yaratasa bo'lar edi. O'shanda hamma menga achinishi mumkin edi. Hozir bo'lsa faqat tanbeh berishadi, xolos.

* * *

Bir soddaga o'g'li o'lgan odamning uyiga borib:

— Xudoga shukr! Xudoga shukr! — debdi.

O'tirganlar hang-u mang bo'lib:

— Nega unday devapsan? — deb so'rashibdi.

— Men o'zi o'libdi, deb eshitgan edim. Xudoga shukr, o'zi tirik ekan. Tanasi butun bo'lsa, bo'pti, yana shox chiqarar, — deb javob beribdi.

* * *

— Shifoxonaga kirsam, — deb so'z boshlabdi bir sod-da, — bir telbani zanjirband qilib qo'yishibdi. Men unga tilimni ko'rsatib, ko'zimni olaytirgan edim, devona osmonga qarab shunday dedi:

— Tavba! Nega bu shifokorlar bir devonani zanjirband qilib qo'yadi-yu boshqasi bilan ishlari yo'q!

* * *

Bir soddaga minoraning tagiga borib:

— Bir miri bersalaring shu minoraning uchiga chiqar edim, — debdi.

Odamlar bir miri berishibdi. Haliyi odam narvon so'rabdi.

— Narvon bilan chiqaman, degan gapni aytmagani eding-ku.

— Narvonsiz chiqaman, deb va'da berganim ham yo'q edi shekilli! — debdi soddaga.

* * *

Bir soddaga yo'l bo'yida yig'lab o'tirgan ekan.

— Qayering og'riyapti, nega yig'laysan? — deb so'ra-shibdi o'tkinchilar.

— Nega yig'lamay, qish kelyapti, na oyog'imda bor, na egnimda, — debdi u.

— Noumid bo'lma. Hali qishgacha bor, xudo berar.

— E, o'sha o'zim biladigan xudo bo'lsa, hech narsa bermaydi. Bultur meni hatto yaktaksiz, belbog'siz qoldir-gan edi, — debdi.

* * *

Bir soddaga bolalar tosh otishibdi. Soddaga bolalardan qochib borayotganida, yosh bola ko'tarib kelayotgan ayolga ro'para kelib qolibdi. Hech narsadan hech narsa yo'q ayolning qo'lidan bolani tortib olib, ketiga tushira ketibdi.

Ayol:

— Hoy noinsof! Norasida go'dakning gunohi nima? — desam, soddaga kishi shunday debdi:

— Befahm! Nahotki tushumasangi! Bu ham katta bo'lsa anavi menga tosh olgan akalardan beshbattar bo'ladi!

* * *

Bir soddaga pulini o'g'irlatib qo'ygan ekan, odamlar unga tasalli berishibdi.

— Xaifa bo'lma! Qiyomat kuni hamma tirilganda, pulingni xudo o'g'ritdan undirib beradi.

— Gaping-ku to'g'ri-ya, lekin buni juda uzoq kutish kerak-da, — debdi soddaga.

* * *

Birov pulini yo'qotib, odamlarga:

— Shu bugungi kundani mash'um kun yo'q, — deb hasrat qilibdi. O'g'ri esa:

— Hamma uchun emas, — debdi.

* * *

Bir soddaga azon aytiladigan minorani ko'rib, do'stiga:

— Bu minorani solgan odamlarning bo'yi juda baland bo'lsa kerak-a? — debdi.

— Ey kalafahm! Odamning bo'yi shunchalik baland bo'lar ekanmi?! Bu minoraning g'ishtini yerga yotqizib terishgan, ana undan keyin ko'tarib, tiklab qo'yishgan! — debdi do'sti.

Bir soddaxudoga yolvoribdi:

— Ey xudo! Besh ming kumush tanga berganingda mingtasini gadoylarga xayr qilardim. Lekin agar menga ishonmasang, mayli, to'rt mingni bergin-u bir mingini o'z qo'ling bilan gadoylarga targat!

Diogendan:

— Nega hamisha bozorda ovqat yeysan? — deb so'rashsa, shundoq debdi:

— Boshqalarning ovqat yeyishini ko'rib ishtaham ochiladi.

Bir faylasufdan so'rabdilar:

— Nega biz xurmoning tashqi qismini-yu, yong'oqning ichki qismini yeymiz?

— Xalloqi olam yaratgan narsalarning qandog' nest-nobud bo'lishi haqida emas, tirik jismlar asrlar bo'yi qandog' saqlanishi haqida o'ylagan. Savolingga mana shu narsalardan javob qidir.

Iskandar Zulqarnaynning sarbozlari orasida Iskandar ismli bir yigit bor ekan. Bu yigit urush vaqtida hamisha qochar ekan. Zulqarnayn unga shunday debdi:

— Yo botir bo'l, yo ismingni o'zgartir, adashligimiz odamlarning boshini aylantirib qo'ydi.

Bir faylasuf shunday debdi:

— Kayf-u safo, ya'ni huzur-halovat to'rt xil: bir lahza, kuni bo'yi davom etadigan, bir oyga cho'ziladigan, bir umrga yetadigan bo'ladi.

Muhabbat tuyg'usidan vujudga kelgan kayf-u safo bir lahza, kuni bo'yi davom etadigan bo'ladi. O'g'il tug'ilganda kishi to'bolaning vujudga kelishiga tekuncha — kuni bo'yi xursand bo'lib yuradi, yangi uylangan kelin-kuyov homiador bo'lgunga qadar kayf-u safo qilib yuradi. Katta davlat umr bo'yi davr-u davron surishga imkoniyat beradi.

Hikoya qilishlaricha, Iskandar Zulqarnayn zaharlangan sharobni ichib, o'limi yaqinlashganini sezgach, onasiga xat yozibdi. Xatida onasidan dasturxon yozib, hech kimi o'lmagan, o'lim dog'ini ko'rmagan odamlarni chaqirib mehmon qilishini so'rabdi.

Bu ishini u dunyoga ustun bo'ladigan odam yo'qligini onasiga ko'rsatish va shu yo'l bilan unga tasalli berish maqsadida qilgan ekan.

Buzurgmehrx shundoq degan ekan:

— Meva mezonida¹, gul naysonda² yaxshi bo'ladi, ammo qizlik latofati, yoshlik g'ayrati, kelgindining kamtarinligi yilning to'rt faslida ham zarur.

— Eri yo'q xotinni nimaga o'xshatsa bo'ladi? — deb bir faylasufdan so'ragan ekanlar, u:

— Suvsiz daryoga, — deb javob beribdi.

¹ Oktabr, noyabr.

² Aprel, may.

* * *

Bir boy bir darveshdan so'rabdi:

— Nega sening afitnga qaragan odam dunyoda bundan baxtliroq odam yo'q deb o'ylaydi, nahot shu hayotingdan shu darajada mamnun bo'lsang?

— Shundoq ham bo'lmog'i darkor, — debdi darvesh, — men xursand bo'lishim, tantana qilishim kerak, sen esa ichingni yeb, qon yig'lashing lozim, chunki umring tugashi bilan davr-u davroning ham tugaydi, men esa hayotim tamom bo'lishi bilan bu dunyoning tashvish-tahlikasidan batamom qutulaman.

* * *

Qabristonda manzil qurgan bir darveshdan:

— Bu yerda nima qilasan? — deb so'rabdilar.

— O'lganlarning jasadini o'rganayapman. Shuncha harakat qildim, hukmdorning jasadi bilan ularning qullari orasidagi tafovutni topolmadim, hammasi bir xil, — debdi.

* * *

Bir hakimning o'qish-o'rganishga sira uquvi yo'q bir o'g'li bor ekan.

Xotini eriga:

— Nega bunaqa ekan-a? Sendek olim, fozil odamdan tug'ilgan bola qip-qizil ahmoq bo'ladi? — desa, eri shundoq debdi:

— Iste'dod irsiy bo'lmaydi, uning joni meniki emas, o'zinikidir!

* * *

Yunon hokimlari kasal bo'lib qolsa, darrov uning moyanasidan mahrum qilisharkan.

* * *

Saxiylikda nom chiqargan bir boyning oldiga bir kambag'al kelib xayr so'rabdi. Tasodifan kambag'al

homonining uchi bilan boyning oyog'ini bosibdi va hatto hamoniga tayanibdi. Qo'li ochiq boy xayr qilibdi, kambag'al ketibdi. Shu asnoda hozir bo'lgan odamlar undan so'rabdi:

— Hassasi barmog'ingni bosganda nechuk chidading?

— Oyog'imni bosganini aytсам, xayrimni olishdan uyaladi deb qo'rqdim, — debdi boy.

* * *

Bir faylasufdan:

— Haqiqiy saxiylik nimadan iborat? — deb so'rabdilar.

— Og'ir kunda lutf-u marhamat qo'lini cho'zishdan iborat, — debdi.

* * *

Bir kosibdan so'rabdilar:

— Sen podshoh bo'lsang nima qilar eding?

— Har kuni kunjutli non bilan asal yer edim, — debdi.

* * *

Bir hazilkash uyiga kirsa, to'shagida g'alvir turibdi.

Darrov devor tagiga borib, qoziqqa osilib olibdi. Shunda

xotini:

— Nima balo, jinni bo'ldingmi? — desa, eri:

— Nima qilay, o'rminda g'alvir yotgandan keyin men ham uning o'rmini egallab oldim-da, — debdi.

* * *

Bir soddaga:

— Eshagingni o'g'irlab ketibdilar, — desa, u:

— Xudoga shukur, xayriyatki, eshaka minib olmagan ekanman! — debdi.

* * *

Bir soddada cho'lda baland tovush bilan baqirib borayotgan ekan, undan:

— Bu nima qilganing? — deb so'rashsa, u:

— Ovozim qaygacha borishini bilmogchiman, — debdi.

Bir faylasufdan:

— Kimni dayus desa bo'ladi? — deb so'rasalar, shunday javob beribdi:

— Chiroyli qizga uylanib, uni yolg'iz qoldirib, o'zi uzoq elga safarga ketgan odamni.

— Kimni eng kuchli deb hisoblasa bo'ladi? — deb bir faylasufdan so'rasalar, shundoq debdi:

— Nafsinii tiya oladigan, egri yo'ldan hazar qiladigan odamni.

Birov o'g'liga shunday nasihat qilibdi:

— Mabodo kambag'al bo'lib qolsang, do'stlaringga ham og'iz ochma ko'rma: chunki seni nazar-pisand qilmay qo'yishlari mumkin.

— Tuhfani egilib qabul qilsang, soni oshadi. Sal kamroq egilsang, tanobi tortilib qolishi mumkin, — debdi bir donishmand.

Bir donishmanddan:

— Dahshatning qo'rquvdan nima farqi bor? — deb so'rabdilar.

— Dahshat nomaqbul biror narsaga havas paydo bo'lganda sodir bo'lsa, qo'rquv o'sha niyat amalga oshganda sodir bo'ladi, — deb javob beribdi.

Birov shundoq degan ekan:

— Go'shtini ovqatga ishlatadigan hayvonlar inson singari o'z ajali bilan o'lganda biz hech qachon yog'li go'sht yemay edik.

Hoshqa birov shunday degan ekan:

— O'z kamchiligini tuzatib, birovlarining gunohini sanab o'tirmaydigan odamning joni hamisha rohatda!

Bir donishmanddan so'rabdilar:

— Xudoning marhamati bilan la'natining mohiyati nimadan iborat?

— Yigit kishi aql va farosatda chollarga o'xshab ketssa, bu xudoning marhamati bo'ladi. Agar chollar aql va farosatda yigitlarga taassub qilishsa, bu xudoning la'nati hisoblanadi.

Bir donishmand shunday degan ekan:

— El-avlod ham kishining bor-yo'g'ini kuyaday qiyimalab tashlaydigan bir narsa.

Bir donishmanddan:

— Aqlingni qay darajada peshlading? — deb so'rasalar, u:

— Shu darajada peshladimki, endi hech kimga ishonmayman, — deb javob beribdi.

* * *

Bir donishmand shundoq degan ekan:

— Yunonlar eng hunarmand, eroniyalar eng xiradmand.

* * *

Bir hokim shundoq degan ekan:

— Bizdan oldin o'tgan hokimlarni bunchalik ko'kka ko'tarmasligimiz kerak. Bu bilan biz o'z fazilatlarimizdan ko'z yumgan bo'lamiz.

* * *

Bir donishmand shundoq degan ekan:

— Mayda savdogar — beg'am, kosib — mehnatkash, katta savdogar — xasis bo'ladi. Mirzo esa bularning barini idora qiladi.

* * *

Bir podshoh ertalab o'g'illaridan birini huzuriga chaqirgan ekan, o'g'li otasi huzuriga bir nimani yutib kiribdi.

Podshoh hayron bo'lib:

— Bomdod namozini o'qimasdan ovqat yeysanmi? — deb so'rabdi.

Bola munkir bo'libdi. Shundan so'ng muallimini chaqirib so'rabdi.

Muallim:

— Balli, har kuni bomdod namozidan oldin shahzoda ovqat so'raydigan odat chiqargan, — debdi.

Podshoh darg'azab bo'lib:

— Non yegan tishlarini arralab tashlanglar! — debdi. Ustki tishlarning uchini arralab bo'lgandan keyin shahzoda yig'lab otasiga yolvoribdi:

— Qiblagoh, ostikisini arralashmasin, ikkinchi marotaba g'azablanganingizda kerak bo'lib qolar!

* * *

Bir donishmanddan so'rabdilar:

— Sening lutf-u marhamatingni had-hududi bormi?

— Odamlardan qanchayin darg'azab bo'lmayin, ko'ng-
laring bir chevida hamisha murosaga o'rin qoldiraman, — debdi.

* * *

— Bir olim ziyofatda mehmonlar sut bilan asalni maza qilib ichib o'tirganini ko'rib, xizmatkoriga:

— Bo'lmasa, kishi jonini beradigan, bo'lsa, odam qo'liga yetmasdan to'kib isrof qiladigan ichimlik keltir!

* * *

Boshqa bir olim shundoq degan ekan:

— To'rt toifa odamlarga xizmat qilish foydadan xoli emas.

1. Taqdirlash qo'lidan keladigan odamlarga.

2. Bilim olishning mumkin bo'lgan odamlarga.

3. Sen uchun duo qiladigan odamlarga.

4. Senga zarar yetkazish qo'llaridan keladigan odamlarga.

* * *

Amir Husrav zamonida bir kishi ko'chada:

— Uch hikmati so'zni ming dinorga oladigan odam bormi? Keling, kep qoling, sotaman! — deb jar solib yurgan ekan.

Bu so'zni podshoh eshitib haligi odamni chaqiribdi.

— Qani ayt, bu qanaga hikmati so'z? — debdi podshoh.

— Avval pulni tayyorlang, keyin aytaman, — debdi hokim.

Pulni oldiga qo'ygandan keyin shundoq debdi:

— Birinchi hikmati so'zim shuki: sening saltanatingda birorta durust odam topilmaydi.

— Ikkinchi hikmati so'zini shuki: odamlarning hammasi shunaga bo'lsa-da, ulardan qochish va ularsiz yashashning iloji yo'q.

— Uchinchi hikmati so'z yuqorida zikr etilgan gaplardan kelib chiqadi: podshoh odamlar qay darajada yomon ekanligini bilishi kerak, o'shandagina o'zini, ko'pini ularga chap berishi mumkin.

Bu hikmati so'zlar podshohga yoqadi. Podshoh hakimini maqtaydi va tayyorlab qo'yilgan pullarni uning etagiga solishni buyuradi, biroq hakim pulni olmaydi.

— Aytadigan so'zingni aytmadan pulni talab qilgan eding-ku, nechuk endi olmaysan? — deb podshoh hayratda qoladi.

Shunda hakim shundoq deydi:

— Bizning zamonda ham hikmati so'zini olinga oladigan odam topiladimi yo'qmi, shuni bilmogchi edim xolos!

KISHINING TASHQI QIYOFASI VA FETL-UVATVORIGA QARAB DONISHMANDLAR CHIQARGAN XULOSALAR

Mayin soch qo'rqoqlik, dag'al soch zo'rlik alomatlaridir. Masalan, tuyay, quyay, qo'zichoqlik tuki mayin, o'zi esa soyudan ham qo'rqadigan bo'ladi. Sher va qo'zining tuki dag'al, o'zi zo'r bo'ladi.

Qorini tuk bosgan maxluq ehtiroslilik bo'ladi. Buni qushlar misolida isbotlash mumkin.

Soch dag'al, bo'y baland, qorin katta, yelka keng, kullarning o'rgasi do'ng, ko'krak sergo'sht, quymich ingichka, ko'z qurug'shagan va qizg'ish, peshona keng va uzunchoq bo'lsa, cho'rtkesar va imoni mustahkam bo'ladi. Bularning aksini tuturqisizlik va lanjlik alomatidir.

Mushaklarning zaifligi, o'rta yonaga semizlik, so'zini til bilan emas, ko'proq harakat bilan tushuntirishga urinish, terining yumshoqligi — mushfiq-mehribon va iftillilik alomatidir.

Bo'yini yo'g'on, peshonasi keng, yelkalari ko'tarilgan, qorini va peshonasi dumaloq, ko'zlari ko'kish bo'lsa, xotin-sulajga beparvo bo'ladi.

Ko'zlari shahlo, qoshlari quyug, bo'yi past, harakati jonsarak, qip-qizil va dumaloq yuzida xoli bo'lsa — hayosiz va surbet bo'ladi.

Kimning chehrasi siniq, qoshi baroq, harakatlari beo'xshov bo'lsa, u hamisha ruhan ezilgan va osudaligini yo'qotgan bo'ladi.

Boshini xiyol o'ngga burib, odimini katta otib, qo'l tashlab yurish, o'tirganda qo'lni belga tirash va hamsuhbatining ko'ziga tikka qarash tug'ma oliyanoblik va omadilik alomatidir.

Kimning ustki labi qalin va ostkisidan keng bo'lsa, shoshib-pishib yursa, kamdan kam rost gapiradi.

Rangning oppoqligi, burunning nosqovoqqa o'xshashi, ko'zning shlipiqiligi xotin-xalajga beparvo va latta odamlarga xos alomatidir. Bunaqa odam hech qachon quyushqondan chiqmaydi. Xotinining tugqani faqat qiz bo'ladi.

Kimning bo'yni yo'g'on va kalta bo'lsa, jahli tez, fe'i band bo'ladi.

Ingichka, uzun bo'yin jasoratsizlik alomati. Bunaqa odam o'z soyasidan ham qo'rqadi.

Ostki labi qalin bo'lib, xuddi osilib turganga o'xshasa, u odam kallavaram, fahm-u farosatsiz bo'ladi.

Kimning burun uchi yo'g'on bo'lsa, u imillab harakat qiladigan bo'ladi. Burunning uchi ingichka bo'lsa, u badihl va arday chaqadigan bo'ladi.

Qulog'i supraday odamni chaqonlikda eshaka o'xshatga bo'ladi.

Ko'zi chuqur odamlar maymunday uchar, ko'zi bo'rib chiqqan odamlar eshakday hafafahm bo'ladi.

Yuzi lavlagiday qip-qizil odam sharobga o'ch bo'ladi. Ichkilikni me'yoridan o'tqazib yuborgani uchun aft-u buharasi shunaga bo'lgan.

Ko'krak va gorrini tuk bosgan odamlar — begaror va bevalo bo'ladi. Bu toifa odamlarni qushga o'xshatish joiz.

Ko'kragida biron tuki yo'q odamlar sharm-hayosiz bo'ladi. Bu toifa erkaklarni xotinihojiz deyish mumkin. Ko'kragini tuk bosgan erkak pahlavonsifat bo'ladi.

Peshonasini tuk bosgan odam mute bo'ladi. Bu toifa odamlar faqat xizmatkorlikka yaraydi.

Nigohi o'qday odam ofatijon va shaddod bo'ladi.

Sekin, tovush chiqarmay gapiradigan odamning botini, shubhasiz, iztirobga to'la bo'ladi. Bu toifa odamlar, ba'zan mehnatsevar ham bo'lishadi.

Agar odamni yoshligidan qodshoh qilib ko'tarisha va uning ko'ngli yumshoq bo'lsa, uzoq umr ko'rmaydi, saltanati tez inqirozga uchraydi. Uning hukmronlik davrida mamlakatda juda ko'p ko'z ko'rmagan, quloq eshitmagan hodisalar sodir bo'ladi.

Agar odam ayni kuchga to'lgan yoshida qodshoh bo'lsa, yana fe'l-u atvor jihatidan tund, xasis va makkor bo'lsa, uning hokimiyati darrov zavolga uchraydi.

Agar odamni qirg, ellikdan keyin qodshohlikka ko'tarisha, buning ustiga, u xushfe'l va xushta'b bo'lsa, uning hokimiyati qodsho bo'lganida u qanchaga kirgan bo'lsa, saltanati shuncha yil mustahkam turadi.

Kimki past tovush bilan gapirsa, jur'atsiz bo'ladi. Kimki chinqirib, pala-partish gapirsa, be'fahm, be'farosat bo'ladi.

Kimning qoshlari orasi keng bo'lib, chap ko'zini tez-tez qisib qo'ysa, quloqlarining ichi tuk bosgan, o'zi hamisha yerga qarab gapirsa, u odam korchalon, uddaburon, ayyor, dor tagidan qochgan bo'ladi, ayniqsa, burmi xiyol chap tomonga qiyshaygan bo'lsa.

Ko'zi chuqur, peshonasi keng, yuzi xiyol cho'zinchoq kishi jujur va dadil bo'ladi. Bunaga odam uzoq umr ko'radi.

Labl do'rdog, burmi pachog, ko'zi katta, hamisha yerga qarab gapiradigan odam landavur bo'ladi.

Ko'zlari kichkina, kipriklari uzun, peshonasi keng, og'zi katta, sochi qo'ng'ir va boshi tepakal bo'lsa, u odam berahm va shafqatsiz bo'ladi.

Burmi puchug, qora va shahlo ko'zlari xiyol qizartirilgan bo'lsa, u ayol xokisor, sharm-hayoli va iffati bo'ladi.

Qoshi qalin, ko'zlari tor, lablari do'rdog, burmi uzun ayoldan ehtiyot bo'li

Qushburun kishilar ishyoqmas bo'lishadi.

Yuzi kulcha, burmi kichkina, ko'z qorachig'i juda katta, nochlari jingalak, yurganida boshini osmonga ko'tarib tip-tik yuradigan ayol eriga vafosiz bo'ladi.

Adabiy-badiiy nashr

Abul Faroj

MAROQLI RIVOVATLAR

Qayta ishlangan ikkinchi nashri

Muharrir *N. Qidiraliyev*

Texnik muharrir *B. Karimov*

Badiiy muharrir *H. Qutluqov*

Musahhih *M. Ishonxonova*

Kichik muharrir *G. Yeraliyeva*

Kompyuterda tayyorlovchi *G. Qulnazarova*

Nashriyot lisenziyasi AI № 158, 14.08.2009.

Bosishga 2016-yil 24-martda ruxsat etildi.

Ofset qog'oz. Bichimi 84×108¹/_y. «Tayms» garniturada ofset usulida bosildi. Shartli b. t. 2,52. Nashr t. 2,15.

Adadi 10 000. Buyurtma № 15-755.

O'zbekiston Matbuot va axborot agentligining

«O'zbekiston» nashriyot-matbaa ijodiy uyi.

100011, Toshkent, Navoiy ko'chasi, 30

Telefon: (371) 244-87-55, 244-87-20.

Факс: (371) 244-37-81, 244-38-10.

e-mail: iriduzbekistan@mail.ru

www.i.rtd-uzbekistan.uz